

“Qishloq va suv xo‘jaligida davlat-xususiy sherikchiligini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari va amalga oshirish mexanizmlari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

2019 yil 1-2 may kunlari o‘tkaziladigan “Qishloq va suv xo‘jaligida davlat-xususiy sherikchiligini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari va amalga oshirish mexanizmlari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

AXBOROT XATI

Anjumanning asosiy maqsadi: Qishloq va suv xo‘jaligida davlat-xususiy sherikchilik mexanizmini shakllantirish va rivojlantirish, bu borada xorijiy tajribalarni o‘rganish asosida sohani rivojlantirish bo‘yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Anjumanda quyidagi ilmiy yo‘nalishlarda ish olib boriladi:

1. Suv xo‘jaligi va melioratsiya masalalari hamda suv xo‘jaligi sohasida davlat-xususiy sherikchiligi: muammolar va yechimlar.
2. Ekologik innovatsiyalar va ularni joriy etish hamda davlat-xususiy sherikchiligi muammolari.
3. Gidrotexnika inshootlari va nasos stansiyalaridan foydalanish, sohada davlat-xususiy sherikchiligi loyihalarini amalga oshirish yo‘nalishlari.
4. Suv xo‘jaligini avtomatlashtirish va elektrlashtirish masalalari.
5. Qishloq va suv xo‘jaligida innovatsion texnika va texnologiyalarni joriy etish hamda ularda davlat-xususiy sherikchiligini qo‘llash.
6. Yer va suv resurslaridan samarali foydalanish hamda qishloq va suv xo‘jaligida davlat-xususiy sherikchiligini tashkil etish va boshqarish.
7. Qishloq va suv xo‘jaligi sohalarida davlat-xususiy sherikchiligi bo‘yicha yuqori malakali kadrlar tayyorlash muammolari.
8. Mamlakat iqtisodiyotining boshqa tarmoq va sohalarida (ta‘lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat, kommunal xo‘jaligi, davlat boshqaruvi va boshqalar) davlat-xususiy sherikchiligining mahalliy va xorijiy tajribalari.

Rasmiylashtirishga oid talablar: Matn o‘zbek, rus va ingliz tillarida qabul qilinadi. Taqdim qilinadigan material annotatsiya, matn, jadval, rasm va foydalanilgan adabiyotlar ruyxati bilan 5 betgacha bo‘lishi, A-4 o‘lchamli oq qog‘ozda to‘liq sahifalanib, Word 2003 taxrirlagichda Times New Roman 12 shriftida 1,0 intervalda puxta taxrirlangan holda tayyorlanishi kerak. Elektron shakli bilan (USB-fleshkada) taqdim etiladi. Matn o‘ng tomondan 2,2 sm, chap tomondan 2,3 sm, yuqoridan 2,0 sm, pastdan 2,0 sm xoshiya qoldirib tayyorlanadi.

Ma‘ruza sarlavhasi katta harflar bilan markazlashgan holda qoraytirib yoziladi, keyingi qatorga muallif(lar)ning F.I.Sh. ish joyi ko‘rsatiladi. So‘ngra bir interval tashlab mavzuning annotatsiyasi, keyin asosiy maqsadi beriladi va yana bir interval tashlab asosiy matn joylashtiriladi.

Maqolalar holda 2019 yilning 18 aprel sanasiga qadar qabul qilinadi.

Tashkiliy qo‘mita manzili: 100000 Toshkent sh., Qori-Niyoziy ko‘chasi, 39 uy. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti. Suv xo‘jaligini tashkil etish va boshqarish fakulteti. B-bino, 202-xona.

Tel: (93) 553-33-40, (90) 167-03-50. Elektron manzil: dav-hus-sh2019@mail.ru